

MOYLI KUNGABOQARNING NAV-NAMUNALARINI RIVOJLANISH FAZALARI BO‘YICHA BAHOLASH

Otanazarova Zebiniso

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

Xayitov Akmal

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institut

Annotatsiya. Maqolada moyli kungaboqar, uning dunyoda tutgan o‘rni, mahsuldorligi, shuningdek navlari va vegetatsiya davri bo‘yicha olib borilgan ilmiy kuzatishlar natijalari haqida qisqacha ma’lumot berilgan..

Kalit so‘zlar: kungaboqar, seleksiya, nav va namunalar, o‘suv davri davomiyligi, hosildorlik.

Dunyoda yiliga o‘rtacha 56 mln. tonna kungaboqar yetishtiriladi. Shundan Rossiya Federatsiyasi yiliga 15,3 mln. tonna kungaboqar ishlab chiqarish bilan eng yirik kungaboqar ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Ukrainada ham 15,2 mln. tonna ishlab chiqarish bilan ikkinchi o‘rinda turadi. Bu ikki davlat dunyio bo‘yicha yetishtiriladigan kungaboqarining 50% dan ortig‘ini ishlab chiqaradi.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda respublikada 61,7 ming gektar maydonga kungaboqar ekib yetishtirilgan bo‘lib, hundan 25,7 ming gektar asosiy, 36 ming gektari ikkinchi darajali maydonlarga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi “2023-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi ”PQ-113-son [qaroriga](#) asosan 2023 yilda Respublikamizda 338,7 ming tonna yetishtirish prognoz qilingan. Respublikamizda kungaboqar asosan Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Jizzax, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida yetishtiriladi. Bugungi kunga qadar respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos kungaboqarning 51 navi Qishloq xo‘jaligi ekinlari davlat reestriga kiritilgan.

O‘simlik moyiga bo‘lgan talabning yuqoriligi hamda ichki bozordagi narxlarni barqaror ushlab turish maqsadida Davlatimiz rahbarining joriy yil 31-maydagi “Iste‘mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta‘minlash va monopoliyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan 1 iyundan boshlab o‘simlik moyi, jumladan, paxta va

kungaboqar moyini eksport qilish vaqtincha taqiqlandi. Shu bilan birgalikda ushbu qararor bilan kungaboqar urug'lari, shuningdek, boshqa moyli o'simliklarning urug'lari va mevalari eksporti to'xtatildi. Bundan maqsad axolini sifatli oziq ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabini qondirishdan iborat.

Kungaboqar urug'i 4-6°C da 10-15 kunda unib chiqadi. Maysasi -6° sovuqqa bardoshli (qisqa qorasovuqlarga chidaydi). Issiqlikka talabchan, yorug'sevar, qisqa kunli, qurg'oqchilikka chidamli, namsevar o'simlik. Soya joyda yaxshi rivojlanmaydi. Kungaboqarning o'suv davri ertapishar navlari uchun vegetatsiya davrining umumiy davomiyligi 70-90 kun, o'rtapishar navlari uchun 90-120 kun, kechpishar navlari uchun 120 kundan ortiq davom etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib o'simlik moyiga bo'lgan talabning yuqoriligi dan kelib chiqib kungaboqar nav-namunalari orasidan respublikamiz tuproq iqlim sharoitlarida mos, sug'oriladigan sharoitlarida yuqori va sifatli xosil olishni ta'minlaydigan bir butun va o'zaro uyg'unlashgan texnologik elementlar: ekish muddati, sxemasi, oziqlantirish me'yori, sug'orish rejimi kabilarning birgalikdagi ta'siri mujassamlashgan tejamkor yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish va uni ilmiy asoslash istiqbolli va maxalliy sharoitga mos navlarni yuqori reproduksiyali sara urug'ini yetishtirishning takomillashgan usulini joriy etish, yangi, tez pishar, pakana bo'yli, urug'ida moy chiqimi yuqori bo'lgan, qurg'oqchilikka, kasallik va zararkunandalarga bardoshli navlarni tanlash maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tajribalarimiz natijasida moyli kungaboqarning 10 ta nav-namunalari orasidan o'suv davri davomiyligi standart navga nisbatan qisqa, ikkinchi ekin sifatida yetishtirishga mos namunalarni tanlandi.

Barcha nav namunalari o'n birinchi aprelda Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali o'quv tajriba xo'jaligiga ekildi. Nav namunalari o'n to'rtinchi aprelda unib chiqdi. Tajribadagi nav namunalari o'suv davri xar xilligi kuzatildi.

Biz dala tajribalarida o'rgangan ma'lumotlar ko'rsatishicha kungaboqar navlari unib chiqish fazasida farqlanishlar kuzatilmadi. Navlarining savatcha hosil bo'lish fazasi turli muddatlarda sodir bo'ldi. Заря, Донжосе, Смена, Номсиз, Талхе, Mahalliy, Ilm F1, Kalta poya, hamda Adozi namunalarda standart navga nisbatan savatacha paydo bo'lish fazasi 4-10 kun oldin sodir bo'lishi kuzatildi. Aksincha Karakabey namunasida standart navga nisbatan savatacha paydo bo'lish fazasi 3 kun keyin sodir bo'lishi kuzatildi. Navlararo o'zgarishlar so'ngi gullash va pishish fazalarida ham shunday navlararo farqlanishlar kuzatildi. Gullash fazasi nav namunalarda 14 maydandan to 19 iyun kunigacha davom yetishi kuzatildi Pishish

fazasi esa 16-iyundan 23- iyulgacha sodir bo'lishi kuzatildi. O'suv davri davomiyligi dala tajribalarida o'rganilgan ma'lumotlar ko'rsatishicha kungaboqar namunalari 68-100 kuni tashkil etdi.

O'tkazilgan tajribalarda kungaboqarning Samarqand viloyatining sug'oriladigan sharoitida asosiy ekin sifatida ekilib, takomillashgan texnologiya asosida o'stirilganda unda 38 sentnergacha urug' xosil olish mumkinligi, yozda takroriy ekin sifatida anigizga ekilganda uning urug' xosildorligini 25 sentnerga va gektaridan moy chiqimini gektaridan 2,0-2,5 tonnaga yetkazish mumkinligi o'rganildi.

№/p	Nav va namunalari	Ekish muddati, oy, kun	Maysalash oy, kun		Savatcha hosil qilish. oy, kun		Gullash. oy, kun.		Pishish. oy, kun.		O'suv davri, kun.
			bosh.	to'1	bosh.	to'1	bosh.	to'1	bosh.	to'1	
1.	Jaxongir (st)	11.04	13.04	17.04	18.05	23.05	02.06	13.06	04.07	09.07	89
2.	Заря	11.04	13.04	17.04	14.05	19.05	21.05	25.05	23.06	28.06	75
3.	Donjose	11.04	14.04	18.04	13.05	17.05	21.05	25.05	23.06	28.06	75
4.	Смена	11.04	13.04	16.04	11.05	16.05	19.05	23.05	21.06	26.06	73
5.	Nomsiz	11.04	14.04	16.04	10.05	15.05	22.05	26.05	24.06	29.06	76
6.	Talxe	11.04	14.04	16.04	16.05	20.05	18.05	22.05	20.06	25.06	72
7.	Mahalliy	11.04	14.04	16.04	06.05	12.05	14.05	18.05	16.06	21.06	68
8.	Karakabey	11.04	15.04	20.04	21.05	27.05	15.06	19.06	18.07	23.07	100
9.	Ilm F ₁	11.04	14.04	18.04	11.05	15.05	18.05	22.05	20.06	25.06	72
10.	Kalta poya	11.04	14.04	18.04	13.05	17.05	22.05	26.05	24.06	29.06	76
11.	Adozi	11.04	13.04	18.04	16.05	20.05	19.05	23.05	21.06	26.06	73

Qisqacha xulosa qilinganda, kungaboqar navlari, navning biologiyasiga bog'liq holda rivojlanish fazalari turli muddatlarda sodir bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

B.Eshonqulov, A.Hayitov. Boshqoli don ekinlaridan keyin moyli kungaboqar o'stirish texnologiyasi. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali. Maxsus son. Toshkent 2022.—№2.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 5-apreldagi "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"dagi "PQ-113-son qarori.